

KOMIL INSON- BOBUR LIRIKASINING BOSH G`OYASI

Satimova Ra'no Habibullayevna

Andijon tibbiyot instituti akademik litseyi

Ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

Annotatsiya: Milliy goyamizning asosiy maqsadlaridan biri ham har tomonlama komil insonni tarbiyalashdan iboratdir. Komil inson esa, bu- ozod shaxs, erkin fikr etuvchi, o`z xalqining ideallari uchun kurashuvchi inson, o`z vataniga halol xizmat qiluvchi kishidir. Islom Karimov ta`biri bilan aytganda, «bizning asosiy boyligimiz, rivojlangan davlat tuzimiga olib boradigan yo`ldagi asosiy tayanchimiz insondir. Yuksak malakali va yuksak ma`naviyatli insondir. Bu narsa, ayniqsa, yosh avlodga tegishli».

Komillik – mehr-muruvvat, adolat, to`g`rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko`plab asl insoniy xislat va fazilatlarining majmuidir.

Zahiriddin Muhammad Bobur faqat yangi tariqat asoschisi sifatida emas, balki turkiy tasavvuf she`riyatining ijodkori sifatida ham takrorlanmas va unutilmas tarixiy vazifani ado etgan edi! Uning asarlari xalqimizning chinakam adabiy mulkiga aylandi.

Zahiriddin Muhammad Bobur komil insonni tarbiyalash haqidagi fikrga jamiyat taraqqiyotiga yangi ma`naviy imkoniyatlar izlash maqsadlari bilan boglangan.

Kalit so`zlar: komil inson, zardushtiylik, umumbashariy, ozod shaxs, mutloq ruh, milliy goya, “Avesto”, yuksak ma`naviyat, Sulton Mahmud Mirzo

Komil inson – bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutloq ruhga tutash, fayz-u karomatlardan serob, surat-u siyrati saranjom, qalbi ezgu tuygularga limmo-lim pokiza zot.....

Komil inson – insonlarning eng mukammali, eng aqlli va eng donosi.

Komil inson insonlar jamiyati ichidan yetishib chiqadigan zotdir. U azaldan martabasi aniq bo`lgan ruh, shu bilan birga, axloqiy-ma`naviy poklanish jarayonida kamolga erishganlar. Komillikning oliy belgisi Haq yo`ldan borib, xalqqa foyda keltirishdir. Kishi o`z suzi, amaliy ishlari bilan qanchalik odamlarga naf keltirsa, yomonlarni tuzuk yo`lga solsa, Haq yo`lidan fido bo`lsa, u shunchalik komildir`.

Komil inson g`oyasi – ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo`lgan, odamzotga xos yuksak ma`naviy va jismoniy mukammalikni o`zida mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan oliyjanob goya.

O`zbekiston o`z istiqloliga erishgandan so`ng, jamiyat ma`naviy hayotini sog`lomlashtirish, inson omiliga katta e`tibor berish mamlakatimiz oldida eng asosiy vazifalardan biri sifatida kun tartibiga qo`yilishi ham moziyning ko`p asrlilik

saboqlariga, jamiyat oldida ko`ndalang turgan yangi vazifalarni hal etishga oqilona yondashishning ko`rinishidir.

Milliy g`oyamizning asosiy maqsadlaridan biri ham har tomonlama komil insonni tarbiyalashdan iboratdir. Komil inson esa, bu- ozod shaxs, erkin fikr etuvchi, uz xalqining ideallari uchun kurashuvchi inson, o`z vataniga halol xizmat qiluvchi kishidir. Islom Karimov ta`biri bilan aytganda, «bizning asosiy boyligimiz, rivojlangan davlat tuzimiga olib boradigan yo`ldagi asosiy tayanchimiz insondir.

Yuksak malakali va yuksak ma`naviyatli insondir. Bu narsa, ayniqsa, yosh avlodga tegishli»`.

Komillik – mehr-muruvvat, adolat, to`g`rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko`plab asl insoniy xislat va fazilatlarining majmuidir.

Komil inson goyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, millat ma`naviyatining uzviy bir qismi bo`lib kelgan. Zardushtiylikning ezgu maqsadlar mujassamlashgan obidasi – «Avesto» da halol mehnat, ya`ni ezgu so`z, ezgu amal, ezgu fikr komillikning asosiy mezonisi sifatida talkin etilgan. Komil inson goyasi islom falsafasidan oziqlanib, yanada kengroq ma`no mazmun kasb etgan. Farobiy fozil shahar aholisi haqidagi g`oyalarini ilgari surar ekan, shaxsning ma`naviy kamolotini adolatli jamiyat kurishning asosiy sharti deb hisoblagan.

Zahiriddin Muhammad Bobur komil insonni tarbiyalash haqidagi fikrga esa jamiyat taraqqiyotiga yangi ma`naviy imkoniyatlar izlash maqsadlari bilan bog`langan. Bobur faqat yangi tariqat asoschisi sifatida emas, balki turkiy tasavvuf she`riyatining ijodkori sifatida ham takrorlanmas va unutilmas tarixiy vazifani ado etgan edi! Uning asarlari xalqimizning chinakam adabiy mulkiga aylandi. Bobur Mirzo Alisher Navoiy ijodini chuqur bo`lgan va jumladan, «...Hech kim o`ncha ko`p va xo`p aytg`on emas», -deya yuksak baho bergan. U o`ziga zamondosh ijodkorlarga baho berishda ham xuddi shu jiddiy mas`uliyat va talabchanlik nuqtai nazaridan yondoshgan. Bu jihatdan, uning temuriyzoda Sulton Mahmud Mirzoning shoirlik faoliyati xaqidagi mana shu so`zlari xarakterli: «Ta`bi nazmi bor edi. Vale she`r bisyor sust va bemaza edi. Andoq she`r aytg`on din aytmag`on yaxshiroqdir»`

She`riyatni qadrllovchi, uning ijtimoiy rolini juda muhim deb tushunuvchi shaxsgina, bunday keskin hukm chiqarishi mumkin.

Bobur Mirzoning faoliyati faqatgina uning mislsiz jarohati, qomusiy bilimi bilangiga emas, balki azlikiy yetukligi, ajdodlar merosini chuqur o`rganib, uni boyitish, katta-kichikka ehtirom ko`rsatish borasidagi harakatlarida ham ko`zga tashlanadi. Aynan mana shunday xislatlar shoir she`riyatining lirik qahramoniga ham xosdir, ya`ni uning she`rlarida hammasida shunday xislatlar nafasi ufurib turadi.

Bobur lirikasi mavzu jihatidan boy va xilma-xildir. U xayot shodliklari, sevgi va sadoqat, ilm-ma`riyat, xalqimizning azal-azaldan ajoyib odatlaridan bo`lgan yurtga muhabbat, onani, Vatanni sevish va ardoqlash, yolg`on gapirmaslik kabi goyalarni kuylaydi va atrofida gilarining ham shunday ezgu xislatlarga ega bo`lishni xohlaydi.

Murakkab va ziddiyatli hayotda kurash yo`lini bosib o`tgan, turli xil fazilatlariga ega bo`lgan shoir- Boburning o`zi bu lirikaning markaziy qahramonidir. Bobur lirikasi inson ruhiy kechinmalarining xilma-xil holatini, uning qirralarini qamrab oladi, hayotning turli masalalarini ta`riflaydi. Uning ijodida haqiqiy inson yuqori pog`onalarda turadi, uluglanadi. Komil inson, axloq, tarbiya, ma`rifatparvarlik, yaxshilik qilish goyalarini ilgari suradi.

Shoh Bobur validasini e`zozlaydi, yor oldida bosh egadi, diniy xayrixohlik va hamkorlikni ustun ko`radi- unga shia ham ,sunna ham , musulmon ham ,ma`jusiyy hindular ham teng odamzot.

Bobur Mirzo Sharqning insonparvar shoirlari izidan borib, odamlar orasida mehr-u vafo urugini sochishga, yaxshilikka butun vujudi bilan intiladi. Tevaragiga olimlar, san`atkorlar, shoirlar, me`morlarni to`playdi, munozaralar o`tkazadi. «Aql va ilmlar dengizi» Ulugbek Mirzoni ulug`laydi, shoirlar shohi Navoiyni ko`klarga ko`taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Ma`naviy yuksalish yo`lida (to`plam) – T: Uzbekiston, 1998
2. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q – T: Sharq, 1998
3. Aliyev.S. Boburning she`riy ijodiyoti (dissertasiya) T, 1948.
4. Bobur. Z.M. Boburnoma – T: yulduzcha, 1990
5. Bobur. Z.M. Devon – T: Sharq, 1996
6. Zohidov.V. O`zbek adabiyoti tarixidan – T, 1961
7. Otajonov. N . «Boburnoma» jahon kezadi T: 1970
8. Orzibekov. R Lirikada kichik janrlar – T: 1976
9. Hasanov. X. Bobur – sayyoh va tabiatshunos- T: Ubekiston 1983
10. Xomidov. X .Hasaniy M. Mashrikzamin hikmat bo`stoni – T: Shark, 1997
11. Erkin. U Bobur Hindistonda –T: Cho`lpon, 1995.